



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





ANVAR OBIDJON ASARLARIDA SIFAT OKKAZIONAL SO‘ZLAR.

Gulnoz Usmonova

FarDU talabasi

Telefon raqami: +998333800823

Elektron pochta: gulnozusmonova16@gmail.com

Ilmiy rahbar **M.Qurbonova** f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada til, uning boyishi, sifat okkazional so‘lar to‘g‘risida ma‘lumot, shuningdek, o‘zbek shoiri Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida va uning “Mo‘ttivoymisan, mittivoymisan?” qissasida keltirilgan sifat okkazional birliklar haqida fikr yuritilgan. Bunda 20dan ortiq sifat okkazional so‘zlar misol sifatida keltirib o‘tilgan va ularning qanday ma‘noda qo‘llanilganligi o‘rganilgan.

Abstract. This article provides information about language, its enrichment, occasional adjectives, as well as thoughts on the life and work of the Uzbek poet Anvar Obidjon and the occasional adjectives mentioned in his story "Mottivoymisan, mittivoymisan?". More than 20 occasional adjectives are cited as examples and their meanings are studied.

Kalit so‘zlar: til, ichki va tashqi omillar, sifat okkazional so‘zlar, Anvar Obidjon, lo‘liko‘z, chuchvaraqaqaynar, yo‘lbarsona, o‘tbosar, pashmaksoch, tamtamfe‘l.

Keywords: language, internal and external factors, adjective occasional words, Anvar Obidjon, lolikoz, chuchvarakaynar, yulbarsona, otbosar, pashmaksoch, tamtamfe‘l.

Kirish. Til bu jamiyatda insonlarning bir-biri bilan o‘zaro fikr almashish, munosabat o‘rnatish va tushunish vositasidir. Tilning boyish jarayoni esa jamiyat bilan uzviy bog‘liqlikda, shuningdek, ichki va tashqi omillar ta‘sirida rivojlanadi. Ichki omillarga asosan, shevalardan so‘z olish va yangi so‘zlar yasash kiradi. Tashqi omillarga esa chetdan kirib kelgan so‘zlar kiradi. Tashqi omillarda siyosat, fan-texnika, globalizatsiya va OAVning roli kattadir.

O‘zbekiston shoiri Anvar Obidjon 1947-yili Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida joylashgan Poloson qishlog‘ida dunyoga kelgan. Hozirgi Milliy universitetning jurnalistika fakultetini bitirgan. Shu kungacha shoirning bolalar va kattalarga atalgan oltmishga yaqin asarlari nashr etilgan. Kitoblarning orasida "Masxaraboz bola", "Juda qiziq voqea", "Alamazon va Gulmat", "Bezgakshamol", "Mulla Baqaloq", "Onamning mamlakati", "Mo‘ttivoymisan, mittivoymisan?", "G‘alati maktublar" kabi asarlari o‘o‘quvchilar orasida alohida e‘tirof etilgan. Ushbu maqolada "Mo‘ttivoymisan, mittivoymisan?" qissasida keltirilgan sifat okkazional so‘zlar o‘rganilgan. Okkazional so‘zlar tilda yangi shakl hosil qilinganlikni anglatgani bois ularning ma‘nosini tushunishda kontekstual yondashuv talab etiladi. Ularning ma‘nosi nutq ichida, ma‘lum matn doirasida reallashadi. Matndan ajratilgan o‘rinlarda ular qaysidir yondosh shakllar bilan paronimlik holatiga ega bo‘lib, nazarda tutilgan ma‘no anglashilishi





murakkablashadi. Ijodkorning maqsadini ana shu doira ichidan aniqlab olish mumkin. Ularni yaratish, avvalo, muallif mahoratiga bog'liqdir.[1]

"Xo'sh, jodugarni eslatuvchi **lo'liko'z** qushga o'q otishning qanaqa xarxashasi bor ekan, dersiz. Agar, o'q hakkaga tegmasdan o'tib, devor ortidan: "Qaaaq! Qaaaaq!!!"- degan nola eshitilmaganida, hamma ish sippa-silliqlik kechgan bo'lardi, albatta. ("Mittivoymisan, mo'ttivoymisan?", 4-bet). Bu yerda Anvar Obidjon lo'li va ko'z ot turkumiga oid so'zlarni birgalikda qo'llash orqali "lo'liko'z" sifat okkazional birligini hosil qilgan. "To'rtinchi kunga o'tar kechasi odamning zavqini **chuchvaraqaaynar** qilvoradigan qoyilmaqom tush ko'rdim." (6-bet) Adib "chuchvaraqaaynar" so'zini "chuchvara" va "qaynamoq" so'zlari orqali mohirona yasagan va uni asarida qo'llagan. "Qo'chqor meni sudragan kuyi, doshqozonning tegrasida chambaragulchin aylanaverdi; telefondan chiqayotgan **yo'lbarsona** na'ralar uning ora-sira xirqiroqlanib babalashini ko'mib yuborayotgandi." (11-bet) Men bu yerda "yo'lbarsona" so'zini sifat okkazional so'z deb oldim. "O'g'ilbola degani mana shunaqa **o'tbosar** bo'lishi kerak-da, og'aynilar!" (12-bet) Yozuvchi "o'tbosar" so'zini mohirona yasagan va uni asarda qo'llay olgan. Bu jumlada "o'tbosar" so'zi bolaga nisbatan sho'x, dadil kabi sifatlarni ifodalash uchun ishlatilgan. "Agar, ko'chaga chiqqach, telefonini berib qo'yishga kirib, tashqida kumushrang uchog'ini osmonga uchirib o'ynayotgan **pashmaksoch** Parpivoyini ko'rmasam, u irshayib boqib, qism-qismga ajratib sotiladigan bu "qiruvchi samolyot"ni dadam shahardan opkeldi, qog'ozdagi ko'rsatmaga qarab uni o'zim tikladim, manavi tugmani bossang, ichidagi kuchalatosh parrakni varillatib aylantirishga tushadi, deb maqtanmasa, opog'otamning uyigacha to'xtamay ketavergan bo'lardim." (16-bet) Bu yerda "pashmaksoch" so'zi sifat okkazional birlik hisoblanadi. "Boyto'ra tepakal bilan Masir **yarg'oqbosh**ning avlodlari yoppasiga ota-buvalariga tortganini hisobga olmaganda, asosan, **to'liqsoch** kishilardan iborat bo'lgan, shunga qaramay, nimagadir, Kalto'pi deb ataluvchi qishlog'imizda bir yarim mingta xonadon bor." (19-bet) Adib bu jumlada "yarg'oqbosh" va "to'liqsoch" okkazional so'zlaridan foydalangan. "Yarg'oqbosh" so'zi bu yerda sochning butunlay yo'qligiga nisbatan, "to'liqsoch" so'zi esa sochi to'kilmaganligiga, sochning butun qismi mavjudligiga nisbatan ishlatilgan. "Yarq etib o'sha yoqqa borsam, opog'otam, **og'zi karrak**, ko'zi durbin bo'lganicha, menga lol tikilib turibdi." (21-bet) Men bu yerda "og'zi karrak" birikmasini okkazional birlik sifatida oldim. Bu jumlada "og'zi karrak" so'zi hayratdan og'zi ochilgan ma'nosini ifodalab kelgan. "Meni ko'rib qolsa, ma, muzqaymoq olib ye, deb, beli sinmagan pulni cho'ntagimga shildiratib tiqib qo'yadigan **tamtamfe'l** odam hozirgi ahvolga qanday chidayapti ekan, deb o'ylayotgandim." (28-bet) Adib "tamtamfe'l" so'zini injiq ma'nosida qo'llagan va okkazional birlikni yasagan. "Tog'am ketgach, opog'otam **shopmo'ylov** fermerning ko'ziga zehn solib turib, to'g'risini ayt, Rahimboy, bu dalako'rmagan oshnang senga og'irini tashlab olmayaptimi, ishqilib, deb so'radi." (28-bet) Men "shopmo'ylov" so'zini okkazional birlik deb oldim. "Uvatda o'tlayotgan qo'y esa, **tirmashqoq** qo'zichog'ini turtkilab, hoy, hadeb emavermagin, o'zi bugun mazam yo'qroq, deb





hasratlangandek bo'lib tuyuluvdi."(30-bet) Yozuvchi "tirmashqoq" so'zini mohirona qo'llagan, bu so'z jumlada "yopishgan, yopishqoq" ma'nosida qo'llangan. " **Changaktish** kemiruvchi burnimga sapchishga shaylanganida, odamchasiga harakat qila olishim yana asqatib, yerda yotgan qaychi bo'lagini oldingi oyoqlarimda mahkam tutamladim-da, bor kuchim bilan selpidim." (30-bet) Bu yerda "changaktish" okkazional so'zi "changak" va "tish" so'zlari orqali mohirona yasalgan. "Qorabekani ko'rib, he, o'sha sendaqangi **bolaparvardan** o'rgildim, deb yerdan kesak olayotganida, xotini tutaqib ketib, hoy, so'loqmonday odam do'ppidek mushukka namuncha o'chakishmasangiz, deb sannab berdi." (46-bet) Bu yerda "bolaparvar" so'zi otlashgan sifat okkazional birlik bo'lib kelgan. "**Lavoqyuz** xotin shundoqqina yonimga kelib to'xtadi, qo'lidagi tog'orani stolga qo'ydi, stullardan biriga o'tirib, ro'molchada yelpinishga tushdi." (55-bet) Men bu jumlada "lavoqyuz" so'zini okkazional birlik sifatida oldim. " Azali **polvonog'iz** bo'lgan Qiron qassob dabdurstdan qo'pollandi."(64-bet) Bu yerda "polvonog'iz" so'zi okkazional birlik hisoblanadi va gapga usta ma'nosida qo'llangan. " Pixpix Chandr o'jarlanib, kunimiz senga o'xshagan **go'ngyalar** qoptimi, deya o'shqirishni boshlagan edi, Oqchopon unga "Hayt!" deb qo'yib, menga do'stona ko'z qadaganicha, oldingi oyog'ini qulog'iga tutdi." (74-bet) Bu yerda "go'ngyalar" okkazional so'zi otlashgan sifat hisoblanadi va "ochko'z" ma'nosida qo'llangan. "**O'tkirquloq** mushuklarga, ayniqsa, o'qsanchar bolani ko'rgan zahoti shaytonlab qolishi mumkin bo'lgan Oqchoponga o'zimni sezdirmaslikka tirishib, zovur do'ngi ortidan sharpasiz odimlab bordim-da, tovuqboqarning uyidan beriroqda g'ujg'onlanib o'sgan yulg'inlar orasiga cho'zildim."(83-bet) Men bu jumlada "o'tkirquloq" so'zini okkazional birlik sifatida oldim. " Bu kuchuk haliyam qarzini to'lamay yuribdimi, deb askiyaga olgan edi, oshpaz yugurishdan to'xtab, yap-yangi idishni makruh qildi bu **changtumshuq**, dedi."(92-bet) Bu yerda "changtumshuq" so'zi salbiy ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan. "Kecha uyqum chala bo'lgani uchun, molxona burchagidagi **parquvsimon** xashak g'aramiga yotiboq, mizg'ib qolibman." (97-bet) Adib "parquvsimon" okkazional birligini "yumshoq" ma'nosida ijodkorona qo'llay olgan. " Qadimiy qo'shiqlarimizni mensimaydigan **paytavaquloqlar** ko'payib boryapti." (112-bet) Bu gapda "paytavaquloqlar" okkazional so'zi otlashib kelgan. " Yana **odamnusxa** bo'lishimni kutib, biqqi chimloqqa yastandim." (115-bet) Men bu yerda "odamnusxa" so'zini sifat okkazional birlik sifatida oldim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Anvar Obidjon mohir ijodkor va badiiy so'z ustasi bo'lgan. U asarlarida, jumladan, bolalarga atalgan " Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?" qissasida ham ko'plab sifat okkazional birliklarni yaratgan va ularni har bir jumlada mohirona va o'z o'rnida qo'llay olgan. Bu esa adibning iste'dodi yuksakligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Qurbonova,"MILLIY UYG'ONISH DAVRI YOZMA MANBALARI TILIDA OKKAZIONAL BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI",dissertatsiya ishi
2. Anvar Obidjon, "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?" qissasi, Toshkent, 2019

